Investitsion jarayonlarga nisbatan ushbu mexanizm korxona strategiyasi bilan investitsion loyihalar, moliyaviy resurslar, tashkiliy vakolatlar va yakuniy natijalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. U investitsion qarorlar kim tomonidan, qanday axborot asosida, qaysi mezonlar bo'yicha va qanday javobgarlik doirasida qabul qilinishini belgilaydi.

Mualliflik yondashuviga ko'ra, sanoat korxonalarida investitsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi — bu strategik diagnostika, investitsion loyihalarni shakllantirish va ko'p mezonli baholash, investitsion portfelni muvozanatlash, moliyalashtirish va risklarni boshqarish, raqamli monitoring hamda postinvestitsion auditni yagona boshqaruv sikliga birlashtiruvchi tashkiliy tuzilmalar, iqtisodiy vositalar va boshqaruv usullari tizimidir.



Mazkur ta'rif mexanizmning ikki asosiy tomonini birlashtiradi. Tashkiliy tomon vakolatlar, javobgarlik, boshqaruv darajalari, bo'linmalararo hamkorlik va qaror qabul qilish tartibini qamrab oladi. Iqtisodiy tomon esa loyiha samaradorligi, kapital qiymati, moliyalashtirish manbalari, risk va natijadorlik ko'rsatkichlariga asoslanadi (1-rasm).

Sanoat korxonalarida investitsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi



1-rasm. Sanoat korxonalarida investitsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi¹

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning bosh maqsadi korxona investitsion resurslarini strategik ustuvor yo'nalishlarga safarbar etish va har bir kapital qo'yilmaning iqtisodiy, texnologik hamda strategik natijadorligini oshirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun mexanizm bir qator vazifalarni bajaradi: investitsion ehtiyojlarni aniqlash; loyihalarni yagona mezonlar asosida baholash; ustuvor loyihalarni tanlash; investitsion portfelni muvozanatlash; moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish; risklarni aniqlash va kamaytirish; loyiha ijrosini nazorat qilish; investitsiyadan keyingi real natijalarni baholash.

Mexanizmning samaradorligi uning barcha elementlari o'rtasida axborot va qarorlar uzluksizligi ta'minlanganida namoyon bo'ladi. Masalan, strategik diagnostika natijalari loyiha tanloviga, loyiha bahosi moliyalashtirish tuzilmasiga, monitoring natijalari esa keyingi investitsion qarorlarga ta'sir qilishi kerak (2-rasm).

1 Manba: Muallif tomonidan investitsion jarayonlarni boshqarishning nazariy yondashuvlari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizm elementlarini umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan.



Investitsion jarayonlarni boshqarishning asosiy tamoyillari

Tamoyil	Mazmuni
 Strategik muvofiqlik	har bir investitsion loyiha korxonaning uzoq muddatli maqsadlari va raqobat ustunliklariga xizmat qilishi kerak.
 Tizimlilik	investitsion jarayonning barcha bosqichlari o'zaro bog'langan yagona boshqaruv tizimi sifatida ko'riladi.
 Kompleks baholash	moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda texnologik, ekologik, bozor va risk omillari hisobga olinadi.
 Shaffoflik	loyiha tanlash, moliyalashtirish va monitoring mezonlari barcha mas'ul subyektlar uchun aniq bo'lishi lozim.
 Javobgarlik	har bir qaror, risk va natija uchun mas'ul shaxs yoki bo'linma belgilanadi.
 Moslashuvchanlik	mexanizm tashqi va ichki sharoitlar o'zgarishiga tez moslasha olishi kerak.
 Natijadorlik	investitsiyalar o'zlashtirilgan mablag' hajmi bilan emas, yaratilgan iqtisodiy va strategik qiymat bilan baholanadi.
 Uzluksiz takomillashtirish	postinvestitsion audit xulosalari yangi loyihalarni baholash va boshqarish amaliyotiga qayta kiritiladi.

2-rasm. Investitsion jarayonlarni boshqarishning asosiy tamoyillari va ularning mazmuni²

Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sakkizta asosiy funksional blokdan iborat: strategik boshqaruv, tashkiliy mexanizm, moliyaviy-iqtisodiy boshqaruv, investitsion loyihalarni baholash, monitoring va nazorat, risk-menejment, raqamlashtirish hamda postinvestitsion audit.


Strategik boshqaruv bloki investitsion siyosat, ustuvor yo'nalishlar, maqsadli ko'rsatkichlar va kapital qo'yilmalar chegaralarini belgilaydi. Tashkiliy blok vakolatlar, qaror qabul qilish darajalari va bo'linmalararo hamkorlikni shakllantiradi.

Moliyaviy-iqtisodiy blok investitsiya manbalari, kapital qiymati, qarz yuklamasi, pul oqimlari va moliyaviy barqarorlikni boshqaradi. Loyihalarni baholash bloki NPV, IRR, qoplanish muddati, strategik muvofiqlik, energiya samaradorligi, ekologik ta'sir va risk ko'rsatkichlarini birlashtiradi [10].

Monitoring va nazorat bloki loyiha budjeti, muddati, jismoniy bajarilish darajasi va kutilayotgan iqtisodiy samarani kuzatadi. Risk-menejment bloki risklarni aniqlash, baholash, kamaytirish va qoldiq riskni nazorat qilishga xizmat qiladi. Raqamlashtirish bloki barcha investitsion ma'lumotlarni yagona platformada birlashtiradi. Postinvestitsion audit esa rejalashtirilgan va haqiqiy natijalarni taqqoslab, kelgusidagi boshqaruv qarorlari uchun korporativ bilim bazasini shakllantiradi (3-rasm).

² Manba: muallif ishlanmasi. Investitsion jarayonlarni samarali boshqarishning strategik, tashkiliy, iqtisodiy va nazorat tamoyillarini tizimlashtirish asosida ishlab chiqilgan.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning funksional bloklari



3-rasm. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning funksional bloklari va ularning tavsiya etilgan ulushlari³

Investitsion boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini strategik, muvofiqlashtiruvchi va operatsion darajalarga ajratish maqsadga muvofiq.

Strategik darajada korxona rahbariyati investitsion strategiyani, kapital qo'yilmalar limitini, investitsion portfel tuzilmasini va yirik loyihalarni tasdiqlaydi. Ushbu daraja investitsion qarorlarning korxona rivojlanish strategiyasiga mosligini ta'minlaydi. Muvofiqlashtiruvchi darajada moliya, texnika, ishlab chiqarish, strategiya, yuridik va risk bo'linmalari vakillaridan iborat investitsion qo'mita faoliyat yuritadi. Qo'mita loyihalarni qiyosiy baholaydi, alternativallarni ko'rib chiqadi va investitsion portfel balansini nazorat qiladi [11].

Operatsion darajada loyiha rahbari va loyiha ofisi loyiha budjeti, grafigi, shartnomalari, risklari va hisobotlarini boshqaradi. Loyiha ofisi texnik bo'linmalar faoliyatini almashtirmaydi, balki ularning ishini yagona metodika asosida muvofiqlashtiradi. Vakolatlarning bunday taqsimlanishi investitsion qarorni qabul qilish va uni amalga oshirish funksiyalarini ajratadi, manfaatlar to'qnashuvini kamaytiradi va javobgarlikni aniq belgilaydi. Taklif etilayotgan mexanizm investitsion jarayonni uzluksiz boshqaruv sikli sifatida tashkil etadi. Sikl strategik diagnostikadan boshlanib, postinvestitsion audit va qayta aloqa bilan yakunlanadi. Strategik diagnostika bosqichida korxonaning asosiy vositalari, texnologik eskirish darajasi, xarajatlar tarkibi, energiya va resurs sig'imi, bozor holati hamda moliyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi [12].

Keyingi bosqichda investitsion ehtiyojlar aniqlanib, ular majburiy, qo'llab-quvvatlovchi, samaradorlikka yo'naltirilgan, innovatsion, ekologik va transformatsion loyihalarga ajratiladi. Shundan so'ng loyihalar yagona pasport asosida shakllantiriladi, dastlabki saralashdan o'tkaziladi va ko'p mezonli baholash asosida ustuvorlashtiriladi. Tanlangan loyihalar investitsion portfelga birlashtirilib, moliyalashtirish manbalari va risk taqsimoti belgilanadi.

Amalga oshirish davrida loyiha ko'rsatkichlari raqamli monitoring orqali nazorat qilinadi. Loyiha yakunlangach, postinvestitsion audit o'tkazilib, olingan natijalardan yangi qarorlar uchun qayta aloqa sifatida foydalaniladi.

Investitsion loyihalarni faqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash sanoat loyihalarining murakkab tabiatini to'liq aks ettirmaydi. Masalan, ekologik xavfsizlik yoki ishlab chiqarish ishonchiligidagi qaratilgan loyiha to'g'ridan-to'g'ri yuqori rentabellik bermasligi mumkin, biroq katta yo'qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi (4-rasm).

3 Manba: muallif ishlarnasi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning asosiy funksional bloklarini tizimlashtirish va ularning tavsiya etilgan ulushlarini baholash asosida ishlab chiqilgan.



Investitsion jarayonlarni boshqarishning uzluksiz sikli



4-rasm. Investitsion jarayonlarni boshqarishning uzluksiz sikli⁴

Shu sababli baholash tizimida strategik muvofiqlik, qoplanish muddati, ishlab chiqarish samaradorligi, energiya va resurs samaradorligi, texnologik yangilanish, eksport salohiyati, mahalliyashtirish, ekologik ta'sir va risk darajasi birlashtirilishi lozim. Integrallashgan loyiha bahosi quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$IB_i = \sum w_j \times b_{ij},$$

bu yerda: IB_i — i-loyihaning integrallashgan bahosi; w_j — j-mezonning vazni; b_{ij} — loyiha bo'yicha j-mezonning ballik bahosi.

Ko'p mezonli baholash turli mazmundagi loyihalarni yagona axborot maydonida solishtirish imkonini beradi. Bunda eng yuqori moliyaviy natijaga ega loyiha emas, balki korxona strategiyasi va resurs cheklovlariga eng mos loyiha ustuvor bo'lishi mumkin.

Investitsion portfel korxonaning bir vaqtning o'zida amalga oshirayotgan yoki rejalashtirayotgan investitsion loyihalari majmuidir. Portfel boshqaruvi alohida loyihalarni baholashdan farqli ravishda, ularning o'zaro bog'liqligi, umumiy resurs talabi va risklar konsentratsiyasini hisobga oladi. Muvozanatli portfelda xavfsizlik va ekologiya, aktivlarni almashtirish, xarajatlarni kamaytirish, quvvatlarni kengaytirish, raqamlashtirish va strategik transformatsiya loyihalari o'rtasida optimal nisbat shakllantiriladi. Portfelni shakllantirishda kapital cheklovi, loyiha muddati, o'zaro texnologik bog'liqlik, xodimlar va pudratchilar quvvati, moliyaviy risk hamda kutilayotgan iqtisodiy samara hisobga olinishi kerak.

Korxona resurslarini kengaytirish loyihalari bilan bir qatorda operatsion xavfsizlik va texnik xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan loyihalar o'rtasida oqilona taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, qo'llab-quvvatlovchi loyihalarni moliyalashtirish bilan birga texnologik rivojlanishga yo'naltirilgan loyihalarning ham mutanosibligini ta'minlash lozim. Shu sababli portfel muvozanati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning muhim vazifasidir. Investitsion loyiha samaradorligi tanlangan texnologik yechim bilan bir qatorda moliyalashtirish tuzilmasiga ham bog'liq. Uzoq muddatda daromad yaratadigan loyihani moliyalashtirishda loyiha

⁴ Manba: muallif ishlanmasi. Investitsion jarayonlarni strategik diagnostikadan postinvestitsion auditgacha bo'lgan uzluksiz boshqarish bosqichlarini tizimlashtirish asosida ishlab chiqilgan.



muddati va pul oqimlariga mos moliyaviy manbalarni tanlash likvidlik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Moliyalashtirish manbalari sifatida sof foyda, amortizatsiya, bank krediti, lizing, obligatsiya, loyiha moliyalashtirishi, strategik investor mablag'lari va yashil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish mumkin [13].

Kapitalning o'rtacha tortilgan qiymati **WACC (weighted average cost of capital)** ko'rsatkichi orqali baholanadi. Qarzni qaytarish jadvali esa loyiha pul oqimlari bilan moslashtirilishi kerak. Bunda qarzga xizmat ko'rsatishni qoplash koeffitsiyenti investitsion loyihaning moliyaviy barqarorligini aniqlashga yordam beradi. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Eksport tushumiga ega korxonalarda valyuta qarzlarini tabiiy xedjirlash imkoniyati ham mavjud. Moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifasi eng arzon manbani tanlash emas, balki loyiha muddati, risk darajasi va pul oqimlariga mos optimal moliyalashtirish kombinatsiyasini shakllantirishdir.

Investitsion risk loyiha natijalarining rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan og'ish ehtimolini ifodalaydi. Sanoat loyihalarida texnologik, qurilish, moliyaviy, valyuta, bozor, xomashyo, ekologik, kontrakt va operatsion risklar bir-biri bilan o'zaro bog'langan holda namoyon bo'ladi. Risklarni samarali boshqarish uchun har bir loyiha bo'yicha risklar reyestri yuritilishi kerak. Reyestrda risk tavsifi, ehtimolligi, oqibat darajasi, mas'ul shaxs, javob chorasi va qoldiq risk ko'rsatiladi.

Riskning umumiy darajasi ehtimollik va zarar ko'lami ko'paytmasi sifatida baholanishi mumkin:

$$R_i = P_i \times L_i$$

bu yerda: P_i — riskning yuz berish ehtimoli; L_i — uning iqtisodiy yoki operatsion oqibatlari ko'lami.

Ssenariy tahlili bazaviy, optimistik va ehtiyotkor variantlarda loyiha natijalarini baholash imkonini beradi. Sezgirlik tahlili esa natijaviy ko'rsatkichlarning xomashyo narxi, valyuta kursi, loyiha muddati va quvvat yuklamasi kabi omillarga qanchalik bog'liqligini aniqlaydi.

Risk-menejmentning maqsadi risklarni korxona qabul qilishi mumkin bo'lgan chegarada boshqarish va riskka mos iqtisodiy natijani ta'minlashdan iborat. Investitsion boshqaruvning samaradorligi tezkor va ishonchli axborotga bog'liq. Yirik sanoat korxonalarda moliyaviy ma'lumotlar, xaridlar, shartnomalar, qurilish grafigi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini o'zaro integratsiyalashgan axborot tizimlarida yuritish boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi.

Yagona raqamli investitsion platforma loyiha pasporti, budget, shartnomalar, xaridlar, muddat, jismoniy bajarilish, risklar, to'lovlar va kutilayotgan iqtisodiy samarani birlashtirishi kerak. Raqamli boshqaruv paneli rahbariyatga reja va haqiqiy xarajatlar, loyiha tayyorligi, kritik og'ishlar, risklar va prognoz natijalarni real vaqtga yaqin rejimda ko'rsatadi. Raqamlashtirish faqat ma'lumotlarni elektron shaklga o'tkazish emas. U qaror qabul qilish tezligini oshirish, og'ishlarni erta aniqlash va boshqaruv javobgarligini kuchaytirishga xizmat qilishi kerak. Investitsion monitoringda mablag'larning o'zlashtirilishi va qurilish ishlarining jismoniy bajarilishi bilan bir qatorda yakuniy iqtisodiy natijalarni ham kompleks baholash muhim ahamiyatga ega. Monitoring loyiha qiymati, muddati, texnik tayyorlik, ishga tushirish, quvvatdan foydalanish, mahsulot tannarxi, energiya tejalishi va real iqtisodiy samara kabi ko'rsatkichlarni qamrab olishi lozim [14].


Postinvestitsion audit loyiha yakunlangandan keyin rejalashtirilgan va amaldagi qiymat, muddat, quvvat, daromad, xarajatlar tejalishi va boshqa ko'rsatkichlarni taqqoslaydi. Audit xulosalaridan kelgusidagi loyihalar uchun metodik manba sifatida foydalanilishi kerak. Bu korxonada ilg'or tajribalarni tizimlashtirish va investitsion boshqaruvning institutsional xotirasini shakllantirishga xizmat qiladi. Korxonalarda investitsion boshqaruv mexanizmi turli yetuklik darajalarida bo'lishi mumkin. Boshlang'ich darajada tizimning asosiy elementlari shakllantirilib, qarorlar alohida tashabbuslar asosida qabul qilinadi.

Fragmentar darajada ayrim moliyaviy yoki texnik elementlar mavjud bo'lib, ularni yagona tizim doirasida o'zaro integratsiyalash imkoniyati mavjud. Tizimlashayotgan darajada asosiy tartiblar va mezonlar shakllanadi hamda monitoring va qayta aloqa mexanizmlarini izchil rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Integrallashgan darajada strategiya, loyihalarni baholash, portfel boshqaruvi, moliyalashtirish va monitoring yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi. Strategik yetuk darajada esa mexanizm doimiy ravishda takomillashtiriladi, raqamli texnologiyalar va postinvestitsion audit natijalari qaror qabul qilish jarayoniga muntazam ta'sir ko'rsatadi [15] (5-rasm).



Investitsion boshqaruv mexanizmining yetuklik modeli



5-rasm. Investitsion boshqaruv mexanizmining yetuklik darajalari⁵

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida sanoat korxonalarida investitsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish, investitsion qarorlarning asoslanganligini kuchaytirish, mavjud moliyaviy va tashkiliy resurslardan oqilona foydalanish hamda investitsion loyihalarning uzoq muddatli natijadorligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi ustuvor taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi: 1) korxona investitsion strategiyasini ishlab chiqish va uni umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish; 2) barcha investitsion tashabbuslar uchun yagona loyiha pasportini joriy etish; 3) investitsion qo'mita va professional loyiha ofisini shakllantirish; 4) loyihalarni ko'p mezonli baholash va ustuvorlashtirish metodikasini qo'llash; 5) alohida loyihalarni emas, investitsion portfelni boshqarishga o'tish; 6) moliyalashtirish manbalarini loyiha muddati, pul oqimi va risk darajasiga moslashtirish; 7) doimiy risklar reyestri, ssenariy va sezgirlik tahlilini joriy etish; 8) yagona raqamli investitsion platforma va boshqaruv panelini yaratish; 9) postinvestitsion auditni majburiy boshqaruv elementi sifatida qo'llash; 10) korxona, universitet va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish.


Takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm investitsion qarorlar sifatini oshirish, loyiha tanlovining asoslanganligini kuchaytirish va kapital resurslarini strategik ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi. Moliyaviy-iqtisodiy vositalarning tizimli qo'llanilishi qarz yuklamasi va likvidlik riskini maqbul darajada boshqarishga, moliyalashtirish tuzilmasining loyiha pul oqimlariga muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ko'p mezonli baholash va portfel boshqaruvi korxonaning texnologik, ekologik va bozor maqsadlari o'rtasida muvozanatni shakllantiradi. Risklar reyestri va raqamli monitoring og'ishlarni erta aniqlashga xizmat qiladi. Postinvestitsion audit boshqaruv qarorlarining sifatini muntazam ravishda takomillashtirish imkonini beradi. Natijada korxona investitsiya hajmini o'zlashtirishdan investitsion qiymat yaratishga yo'naltirilgan boshqaruv modeliga o'tadi. Maqolada sanoat korxonalarida investitsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi strategik, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, loyiha, monitoring, risk, raqamli va postinvestitsion audit bloklarini birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida talqin qilindi.

Mualliflik yondashuvida investitsion boshqaruv mexanizmining asosiy mazmuni investitsiya hajmini taqsimlashdan kapital qo'yilmalar natijadorligi, risk darajasi va yaratilayotgan iqtisodiy qiymatni boshqarishga o'tish bilan belgilanadi.

Taklif etilgan model sanoat korxonalarida investitsion strategiya, investitsion qo'mita, loyiha ofisi, yagona loyiha pasporti, ko'p mezonli baholash, portfel boshqaruvi, raqamli monitoring va postinvestitsion auditni joriy etishda metodik asos sifatida qo'llanilishi mumkin (6-rasm).

⁵ Manba: muallif ishlanmasi. Investitsion boshqaruv tizimining shakllanganlik, integratsiyalashuv va strategik rivojlanish darajalarini umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan.

**Takomillashtirilgan mexanizmning kutilayotgan ta'sir yo'nalishlari****6-rasm. Takomillashtirilgan mexanizmning kutilayotgan ta'sir yo'nalishlari⁶**

Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida investitsion jarayonlarni samarali boshqarish alohida moliyaviy yoki texnik qarorlar majmui emas, balki strategik, tashkiliy va iqtisodiy elementlarni birlashtiruvchi yaxlit mexanizmni talab etishini ko'rsatdi.

Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm strategik diagnostika, investitsion ehtiyojlarni aniqlash, loyihalarni ko'p mezonli baholash, investitsion portfelni shakllantirish, moliyalashtirish va risklarni boshqarish, raqamli monitoring hamda postinvestitsion auditni uzluksiz boshqaruv sikliga birlashtiradi.

Mazkur mexanizmning tashkiliy qismi vakolat, javobgarlik va bo'linmalararo hamkorlikni belgilasa, iqtisodiy qismi kapital qiymati, pul oqimlari, loyiha samaradorligi, risk va yakuniy natijalarni baholashga asoslanadi.

Investitsion loyihalarni baholashda qoplanish muddati va rentabellik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda strategik muvofiqlik, texnologik yangilanish, energiya va resurs samaradorligi, ekologik ta'sir, eksport salohiyati hamda risk darajasini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Investitsion portfelni boshqarish alohida loyihalar o'rtasidagi resurs va risk muvozanatini ta'minlaydi. Moliyalashtirish manbalarini loyiha hayotiy sikliga moslashtirish esa korxonaning moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Raqamli monitoring va postinvestitsion audit investitsion boshqaruvni tezkor nazorat, oldindan ogohlantirish va doimiy takomillashtirish tamoyillariga asoslangan tizimga aylantiradi.

Umuman olganda, taklif etilgan mexanizm sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni kapital mablag'larni o'zlashtirish jarayonidan iqtisodiy qiymat, texnologik yangilanish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni yaratishga.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
3. Vahobov, A. V. Xorijiy investitsiyalar / A. V. Vahobov, Sh. X. Xajibakiev, N. G. Muminov. – Toshkent : Moliya, 2010.
4. G'ozibekov, D. G. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari / D. G. G'ozibekov. – Toshkent : Moliya, 2003.
5. Xonkeldiyeva, G. Sh. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korporatsiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari / G. Sh. Xonkeldiyeva. – Toshkent, 2017.

⁶ Manba: muallif ishlanmasi. Ko'rsatkichlar taklif etilayotgan mexanizmning kutilayotgan ta'sir yo'nalishlarini ifodalovchi konseptual-illiyustrativ indekslar asosida shakllantirilgan.



6. Xonkeldiyeva, G. Sh. Telekommunikatsiya sohasida investitsion faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi / G. Sh. Xonkeldiyeva // *Ekonomika i biznes: teoriya i praktika*. – 2019. – № 11-3. – B. 146–150.
7. Xonkeldiyeva, G. Sh. O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarini rivojlantirish / G. Sh. Xonkeldiyeva // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2018.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar va sanoat rivojlanishiga oid materiallar.
9. Siddiqov, A. A. Korxonalarda investitsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari (Farg'ona viloyati sanoat korxonalari misolida) / A. A. Siddiqov. – 2026. – B. 77–85. – DOI: 10.5281/zenodo.21743240.
10. Усманов, А. А. Влияние системы управления в организации на эффективность труда / А. А. Усманов // *Журнал «Маркетинг»*. – 2025. – № 8. – DOI: 10.67668/mj/2025iss8/186.
11. Siddiqov, A. A. Совершенствование организационно-экономических механизмов управления инвестиционными процессами на предприятиях (на примере промышленных предприятий Ферганской области) / A. A. Siddiqov. – 2026. – С. 58–63. – DOI: 10.5281/zenodo.21743229.
12. Siddiqov, A. A. Analysis of the Current State of Investment Process Management at Industrial Enterprises of the Fergana Region / A. A. Siddiqov. – 2026. – P. 67–72. – DOI: 10.5281/zenodo.21743235.
13. Usmonov, A. A. Various Ways to Achieve Efficiency in Management by Using Motivational Mechanisms in Organizations for Youth / A. A. Usmonov. – 2020. – P. 105–110. – DOI: 10.5958/2249-877X.2020.00038.7.
14. Siddikov, A. A. Mahalliy boshqaruvda yetakchilik konsepsiyasi orqali faoliyat samaradorligini oshirish (Farg'ona viloyati misolida) / A. A. Siddikov // *Green Economy and Development*. – 2026. – Vol. 4, № 3. – DOI: 10.5281/zenodo.19156904.
15. Usmonov, A. Analysis of Factors Affecting the Effectiveness of Management Activities of Youth Organizations in Uzbekistan / A. Usmonov // *Finance, Economics, and Industry for Sustainable Development. ESG 2024* / eds. A. Rummyantseva, S. Rapaic, S. Y. Solodovnikov, E. Sintsova. – Cham : Springer, 2025. – (Springer Proceedings in Business and Economics). – DOI: 10.1007/978-3-031-87752-0_27.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>